



Axborot xabarnomamizning yettinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YI) ning [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan [“O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayoniga ko‘maklashish”](#) loyihasi bo'yicha axborot xabarnomamizning yettinchi sonini taqdim etishdan mamnumiz.

Fursatdan foydalanib yaqinda bo'lib o'tgan tashkilotning 12-Vazirlar konferensiyasi hamda Ishchi guruhining 5-majlisi haqida ham ma'lumot berib o'tishni lozim topdik.

Axborotnomamizning navbatdagi sonida 2022 yilning aprel-iyun oylarida O'zbekistonga ko'rsatilgan yordamga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston muzokarachilarini 2022-yil 21-iyunda bo'lib o'tgan Ishchi guruhning 5-yig'ilishida ishtirok etishga tayyorlashda ko'rsatilgan texnik yordam so'nggi chorakdagi asosiy voqealardan biri bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston delegatsiyasining Jenevadagi JSTning (2022-yil 12-15-iyun) 12-Vazirlar konferensiyasida ishtirok etishiga ko'maklashildi. Chorak davomida bir qator mavzular bo'yicha texnik mashg'ulotlar ham o'tkazildi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу бундани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

JSTga a'zo bo'lish jarayonida ushbu jarayonni bosib o'tayotgan mamlakatning mavjud savdo va iqtisodiy siyosatini tashkilot a'zolari bilan muhokama qilish muhim rol o'ynaydi. Bu JSTga kirish bo'yicha muzokaralar uchun asos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan loyiha O'zbekistonga Ishchi guruhining majlislariga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi. So'nggi uch oy ichida loyiha joriy yilning 21 iyulida bo'lib o'tgan Ishchi guruhning 5-yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rishda yordam berdi.

O'zbekistonning muzokara guruhiga bo'lajak uchrashuvlarda JST a'zolariga beriladigan savollar bo'yicha individual maslahatlar berildi. Shuningdek, JSTning subsidiyalar bo'yicha qoidalari, mahalliy kontentga bo'lgan talablar, xizmatlar savdosining asosiy jihatlari bo'yicha texnik muhokamalar tashkil etildi. XSM ekspertlar guruhi joylarda texnik yordam berish uchun Toshkentga tashrif buyurdi.



O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rinbosari Badriddin Abidov va XSM ijrochi direktori o'rinbosari Doroti Tembo xonim o'rtasidagi

Fotosurat: XSM

Loyiha, shuningdek, muzokarachilar guruhining olti nafar vakilining Jenevada bo'lib o'tgan Ishchi guruhning 5-yig'ilishidagi ishtirokini ta'minladi. Shu bilan birga, loyiha uchrashuv doirasida rus tilidan ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjimalarni tashkillashtirishda ham ko'mak berdi.

2022-yilning 27-iyun kuni, O'zbekiston delegatsiyasining Jenevaga tashrifi doirasida loyiha bosh muzokarachi va investitsiya va tashqi savdo vaziri o'rinbosari Janob Badriddin Abidov va XSM ijrochi direktori o'rinbosari Doroti Tembo o'rtasidagi uchrashuvni tashkil qildi. Tomonlar kelgusidagi hamkorlik va loyihaning istiqbolli vazifalarini muhokama qildilar.

Loyiha joriy yilning 12-15 iyun kunlari O'zbekiston delegatsiyasining Jenevadagi JSTning 12-Vazirlar konferensiyasida ishtirok etishiga yordam berdi. Xususan, Toshkentdan borgan ikki nafar vakilning tashrifini tashkil etishga hissa qo'shdi. JSTning 12-Vazirlar konferensiyasi arafasida bosh muzokarachi Janob Abidov JSTga a'zo bo'layotgan mamlakatlar yig'ilishiga raislik qildi, bu esa mamlakatning a'zolik jarayoniga faol va qat'iy sodiqligini ko'rsatadi.



JSTning 12-Vazirlar konferensiyasida ishtirok etish uchun Jenevaga tashrifi chog'ida O'zbekiston investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rinbosari Badriddin Abidov XSM ijrochi direktori Pamela Koks-Gamilton bilan norasmiy ravishda uchrashdi.

Fotosurat: XSM

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

Milliy qonunlarning JST bitimlariga muvofiqligi tashkilotga a'zo bo'lish jarayonidagi yana bir mezon hisoblanadi. Ushbu muhim tarkibiy qismga ko'maklashish maqsadida loyiha O'zbekiston milliy qonunlarini qayta ko'rib chiqishda yordam beradi. O'tgan chorakda loyiha JSTning ikkita bitimiga (subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitim va savdo bilan bog'liq investitsiya choralari bo'yicha bitim) muvofiqlikni tekshirish uchun subsidiyalar bo'yicha 15-ta milliy qonuniy hujjatni tahlil qildi. 2022 yilning aprel oyida XSM mutaxassisi ish natijalarini taqdim etish va Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (ITSV) vakillari bilan keyingi qadamlarni muhokama qilish uchun Toshkentga tashrif buyurdi.

Loyiha doirasida intellektual mulk huquqlariga oid milliy qonunchilikning JST qoidalariga muvofiqligini ta'minlashda ham yutuqlarga erishildi. Ilgari taqdim etilgan tavsiyalarni hisobga olgan holda, hukumat milliy qonunchilikka o'zgartishlarni ishlab chiqishni ma'qulladi. Loyiha ko'magida Toshkentdagi mahalliy yuridik firma aniqlandi, u bilan tanlov jarayoni doirasida zarur o'zgartishlar ishlab chiqish bo'yicha shartnoma tuzildi. Ushbu ish uchinchi chorakda yakunlanishi kutilmoqda.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Qonunlarga kiritiladigan texnik o'zgartirishlarni qo'llab-quvvatlash va JST qoidalariga muvofiq ularni qo'llash maqsadida loyiha a'zo bo'lish jarayonida ishtirok etayotgan davlat xizmatchilariga texnik yordam ko'radi.

O'tgan chorakda xizmatlar savdosi bo'yicha treninglarga alohida e'tibor qaratildi (JSTning xizmatlar savdosi bo'yicha umumiy kelishuvi (GATS) doirasida). 23 va 25 may kunlari GATS bo'yicha majburiyatlar va kapital bozorini tartibga solish bo'yicha onlayn seminar o'tkazildi.

21 va 22 aprel kunlari Toshkent shahrida subsidiyalar va eksportni rag'batlantirishning qo'shimcha choralari bo'yicha sayyor trening o'tkazildi.

Trening davomida uning ishtirokchilari subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha kelishuv doirasidagi o'z bilimlarini mustahkamlab oldilar. Shu bilan birga, trening ishtirokchilari subsidiya to'g'risidagi 15 ta qonun hujjatlar tahliliy natijalarini ham muhokama qildilar.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) akademik dasturining bir qismi bo'lgan JSTning huquq va amaliyoti bo'yicha kursni ishlab chiqishda texnik yordam ko'rsatish bo'yicha ishlar davom ettirildi. 2022 yilning aprel-iyun oylarida Jahon Savdo Instituti (JSI) hamkor universitet sifatida JIDU o'qituvchilari va talabalar ma'ruzalar va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etdi.



Professor Xun Chjao "Xitoy savdo siyosatidagi so'nggi voqealar" mavzusida leksiya o'qidi

Fotosurat: XSM

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

TBT va SFS bilan bog'liq qonunlarni qayta ko'rib chiqish, ularni JST qoidalari bilan muvofiqlashtirish bo'yicha ish o'z yakuniga yetdi. Hozirda hukumat milliy qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha tavsiyalarni ko'rib chiqmoqda.

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyihamizning asosiy maqsadi jamoatchilikning barcha qatlamlari orasida, jumladan, ayollar va yoshlarning JSTga a'zolik va jahon iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvidan keladigan foydalar haqida xabardorligini oshirishdan iborat.

Natijada, bu JSTga a'zo bo'lish bo'yicha hukumat va uning tarkibiy qismlari o'rtasida konsensusga erishishga yordam beradi. Shu bilan birga, muzokaralarda pozitsiyalarning yaratilish jarayonida tomonlar o'rtasida JST bo'yicha noto'g'ri tushunchalarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun loyiha O'zbekistonning turli hududlarida xabardorlikni oshirish bo'yicha seminarlar tashkil etish to'g'risida so'rov oldi. Birinchi seminar 2022 yilning 22 iyulida Xivada (Xorazm viloyati) bo'lib o'tdi. Avgust va sentyabr oylarida O'zbekistonning boshqa o'nta hududida ham (Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Farg'ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari) bir qator seminarlar tashkil etiladi.

ISVT bilan hamkorlikda xususiy sektorni jalb qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar o'rganilmoqda.

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)